

2. Axmedov B.R. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi zamon va o‘rta asrlar) T., 2001.
3. Arslonzoda R. A. Qo‘qon xonligi manbashunosligi va tarixnavisligi muammolari ma’ruza matnlari (elektron versiyasi) Farg‘ona, 2007.
4. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). International Journal on Integrated Education, 2(5), 212.
5. Toshtemirova, S. (2020). Factors Affecting the Quality of Education and the Importance of the Education Cluster to Address Them. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(4), 151-156.

**“RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA YOSHLAR
MEDIASAVODXONLIGI: INNOVATSION VA XALQARO
YONDASHUVLAR”**

Boymatov Farhodjon Ziyodqo‘zi o‘g‘li
Qo‘qon DPU Tarix kafedrası o‘qituvchisi s.f.d (PhD)
Boymatovfarhod0402@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqola mediasavodxonlikning yoshlarning fikrlash tarzi va qaror qabul qilish jarayoniga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Axborot oqimi tobora ortib borayotgan hozirgi davrda yoshlar ishonchli va yolg‘on ma’lumotlarni ajrata olish, dezinformatsiya va manipulyatsiyalardan himoyalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari muhimdir. Mediasavodxonlik insonning tanqidiy fikrlash, ongli qaror qabul qilish va kiberxavfsizlikni ta’minlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Maqolada mediasavodxonlik darajasining yoshlarning ijtimoiy hayotidagi o‘rni, raqamli axborot makonida yo‘nala olish qobiliyati, dezinformatsiyaning ta’siri va undan himoyalalanish strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar va ushbu yo‘nalishdagi dolzarb tadqiqotlar asosida mediasavodxonlikning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: mediasavodxonlik, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xavfsizligi, feyk ma’lumotlar, dezinformatsiya, manipulyatsiya, kiberxavfsizlik, xalqaro tajriba.

АННОТАЦИЯ Данная статья посвящена изучению влияния медиаграмотности на мышление и процесс принятия решений молодежи. В условиях нарастающего потока информации крайне важно, чтобы молодые люди умели отличать достоверные сведения от ложных, защищаться от дезинформации и манипуляций. Медиаграмотность способствует развитию критического мышления, осознанного принятия решений и повышения кибербезопасности. В статье анализируется роль медиаграмотности в социальной жизни молодежи, их способность ориентироваться в цифровом информационном пространстве, влияние дезинформации и стратегии защиты

от нее. Также рассматривается международный опыт и актуальные исследования в данной области.

Ключевые слова: медиаграмотность, информационная культура, критическое мышление, молодежь, социальные сети, информационная безопасность, фейковые новости, дезинформация, манипуляция, кибербезопасность, международный опыт.

ABSTRACT This article explores the impact of media literacy on the thinking patterns and decision-making processes of young people. In today's era of increasing information flow, it is crucial for young individuals to be able to distinguish between reliable and false information, protect themselves from disinformation and manipulations. Media literacy develops critical thinking, informed decision-making, and cybersecurity awareness. The article analyzes the role of media literacy in youth's social life, their ability to navigate the digital information space, the influence of disinformation, and strategies to counter it. Additionally, international experiences and recent studies in this field are examined to highlight the significance of media literacy.

Keywords: media literacy, information culture, critical thinking, youth, social networks, information security, fake news, disinformation, manipulation, cybersecurity, international experience.

KIRISH Bugungi globallashuv va raqamli inqilob sharoitida inson hayoti axborot oqimidan ajralmas darajaga yetdi. Xususan, yoshlar kundalik hayotida turli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va internet resurslari orqali katta hajmdagi axborot bilan to‘qnash kelmoqda. Bu esa ulardan axborotni tahlil qilish, haqiqatni yolg‘ondan ajrata bilish, manipulyatsiyalarga berilmaslik va mustaqil fikrlash qobiliyatini talab qiladi. Aynan shu jarayonda mediasavodxonlik muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda ta‘lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari hisoblanmish O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta‘limning ustuvor deb e‘lon qilinishi bundan tashqari unda ta‘lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish belgilab qo‘yilgan [1].

Mediasavodxonlik – bu nafaqat axborot qabul qilish, balki uni tahlil qilish, ob‘ektiv baholash va ongli ravishda ishlatish ko‘nikmalarining jamlanmasidir. U insonning tanqidiy fikrlashini shakllantirish, dezinformatsiya va feyk yangiliklarga qarshi immunitet hosil qilish hamda axborot manbalarini to‘g‘ri tanlash imkonini beradi. Shu sababli, mediasavodxonlik nafaqat individual rivojlanish uchun, balki butun jamiyat barqarorligi uchun ham muhim strategik ahamiyatga ega.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha yetakchi davlatlarda maxsus dasturlar va strategiyalar ishlab chiqilgan. Masalan, YuNESKO tomonidan mediasavodxonlik va axborot madaniyatini oshirish bo‘yicha xalqaro tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular dunyo miqyosida ushbu sohaning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bunday yondashuvlar yoshlarning media

makondagi faoliyatini samarali tashkil etishga, ular orasida axborot manipulyatsiyalarining oldini olishga hamda kiberxavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbekiston sharoitida mediasavodxonlikning rivojlanishi so‘nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. Xususan, ta‘lim muassasalarida mediasavodxonlikka oid darslar tashkil etilmoqda, jurnalistika sohasida yangi metodik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda, ommaviy axborot vositalarida dezinformatsiya va feyk xabarlarini aniqlash bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. Shunga qaramay, bu sohada hali yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Masalan, mediasavodxonlik bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari va metodikalarning yetishmovchiligi, yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuvlarning hali to‘liq shakllanmaganligi, kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlarning yetarli darajada bo‘lmasligi asnosida 2022-yildan buyurtmachi tashkilot talabi asosida (Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi) Oliy ta‘lim tashkilotlarida mediasavodxonlik fan sifatida o‘qitilmoqda. Mazkur maqolada mediasavodxonlikning yoshlarning fikrlash tarzi va qaror qabul qilish jarayoniga ta‘siri, shuningdek, dezinformatsiya, axborot manipulyatsiyasi va kiberxavfsizlikning bu jarayondagi roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – mediasavodxonlikni shakllantirishning dolzarbligi va uning yoshlar hayotidagi o‘rni haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishdan iborat. Shunday qilib, mediasavodxonlik – bu faqat axborot olish va uni tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, balki yoshlarning dunyoqarashi, tanqidiy fikrlashi va ijtimoiy faolligini shakllantirishga xizmat qiladigan muhim omildir. Ushbu maqolada mediasavodxonlikning ahamiyati, yoshlarning qaror qabul qilish jarayoniga ko‘rsatadigan ta‘siri hamda unga ta‘sir etuvchi omillar chuqur yoritiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Mediasavodxonlik – bu nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, solishtirish va ishonchliligini tekshirish qobiliyatidir. Yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda mediasavodxonlik quyidagi jihatlar orqali ahamiyat kasb etadi:

Axborotni tahlil qilish qobiliyati – turli manbalar orqali tarqatilgan xabarlarini o‘zaro solishtirish va ularning ishonchliligini tekshirish imkonini beradi.

Siyosiy va ijtimoiy tafakkurni shakllantirish – yoshlar ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga faol aralashishdan oldin axborotni chuqur tahlil qilishni o‘rganadilar.

Raqamli xabardorlik – internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan yolg‘on ma‘lumotlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish malakalarini shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlar ommaviy axborot vositalarining manipulyativ ta‘siriga tushib qolmaydi va o‘z qarorlarini mustaqil ravishda qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [2].

Dezinformatsiya – bu ataylab yolg‘on yoki chalg‘ituvchi axborotni tarqatish jarayoni bo‘lib, u ijtimoiy barqarorlikka jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Yoshlar

dezinformatsiya va axborot manipulyatsiyasiga eng sezgir guruh hisoblanadi. Quyidagi manipulyatsion texnikalar ularning qaror qabul qilishiga bevosita ta’sir qiladi:

Feyk yangiliklar – haqiqatdan yiroq bo‘lsa ham, ko‘pchilik tomonidan to‘g‘ri qabul qilinadigan xabarlar tarqatiladi.

Klikbeyt sarlavhalar – haqiqatga mos kelmaydigan, ammo e’tiborni jalb qiluvchi xabarlar orqali odamlarning fikri o‘zgartiriladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda manipulyatsiya – yoshlar ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazgani sababli, ularning axborotga bo‘lgan munosabatini maqsadli ravishda o‘zgartirish. oson kechadi. Masalan, siyosiy jarayonlarda yoshlar noto‘g‘ri axborotlar ta’sirida ma’lum nomzod yoki partiyaga nisbatan noto‘g‘ri qaror qabul qilishlari mumkin. Shuningdek, iqtisodiy masalalarda ham manipulyatsiya natijasida ishonchsiz investitsiyalar yoki moliyaviy piramidalarga jalb etilish xavfi ortadi [3]. Yoshlar mediasavodxonlik qoidalariga rioya qilmagan taqdirda, ularning shaxsiy ma’lumotlari va internetdagi faolligi xavf ostida qoladi. Raqamli xavfsizlikni ta’minlash uchun quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarur:

Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish – internetda o‘z shaxsiy ma’lumotlarini tarqatishdan ehtiyot bo‘lish. Kuchli parollardan foydalanish – ikki bosqichli autentifikatsiya va murakkab parollar qo‘llash. Ishonchsiz manbalardan axborot qabul qilmaslik – rasmiy yoki ishonchli axborot manbalariga tayanish.

Raqamli xavfsizlik bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lmagan yoshlar turli firibgarlik sxemalariga duch kelishlari, shaxsiy ma’lumotlarini yo‘qotishlari yoki zararli kontent ta’siriga tushib qolishlari mumkin [4]. Dunyoning turli mamlakatlarida mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalar qo‘llaniladi:

Finlandiya – maktab dasturiga mediasavodxonlikni alohida fan sifatida kiritgan. AQSh va Yevropa Ittifoqi – yoshlarni dezinformatsiyadan himoya qilish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. YuNESKO – mediasavodxonlik bo‘yicha global tashabbuslar va o‘quv dasturlarni ilgari surmoqda. O‘zbekistonda ham mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha qator loyihalar mavjud, ammo bu sohaga yanada kengroq e’tibor qaratish lozim.

Xulosa

Mediasavodxonlik bugungi kunda inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, yoshlarning fikrlash tarzi va qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida insonlar har kuni ko‘plab turli manbalardan axborot qabul qiladi. Bunday sharoitda haqiqatni yolg‘ondan ajrata olish, axborotni tahlil qilish, dezinformatsiya va manipulyatsiyalarga qarshi immunitet hosil qilish nihoyatda muhim vazifaga aylanadi.

Mediasavodxonlikning yetarlicha rivojlanmagani yoshlar orasida turli noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga, manipulyatsiyalar ta’siriga tushib qolishiga, hatto ijtimoiy

va siyosiy barqarorlikka putur yetkazuvchi xatti-harakatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, dezinformatsiya va feyk yangiliklar siyosiy qaror qabul qilish jarayonida jiddiy xatar tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun ham ta’lim tizimida mediasavodxonlikni kuchaytirish nafaqat shaxsiy, balki jamiyat farovonligi uchun ham dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonda mediasavodxonlikni shakllantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jurnalistika va kommunikatsiyalar bo‘yicha maxsus oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda, maktab va kollej o‘quv dasturlariga mediasavodxonlik elementlari kiritilmoqda, shuningdek, mustaqil o‘rganish uchun turli qo‘llanmalar va metodik materiallar tayyorlanmoqda. Biroq, bu jarayonni yanada rivojlantirish va kengroq qamrovga ega qilish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim:

Mediasavodxonlikni ta’lim tizimining barcha bosqichlariga joriy etish – maktab dasturlarida alohida fan yoki modul sifatida kiritish, oliy ta’lim muassasalarida esa yanada chuqurlashtirish lozim.

O‘qituvchilar va jurnalistlar uchun maxsus tayyorgarlik kurslarini tashkil etish – mediasavodxonlikni o‘qitadigan pedagoglarning o‘zlari ham yuqori saviyada bo‘lishlari talab etiladi.

O‘zbekistonda mediasavodxonlikni o‘qitish jarayoni quyidagicha rivojlandi: O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 2018-yil 24-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ № 3737-sonli qarori bilan tashkil etilgan[5]. Ushbu universitet jurnalistika sohasida, jumladan, mediasavodxonlik bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan.

2019-2020 o‘quv yili: O‘zJOKUda “Internet jurnalistika va ijtimoiy tarmoqlar” fakulteti hamda uning qoshida “Raqamli media va internet jurnalistika” kafedra sh boshladi.

Axborot tahlili va faktcheking ko‘nikmalarini rivojlantirish – yoshlarga mustaqil ravishda axborotni tahlil qilish, manbalarni tekshirish va dezinformatsiyaga qarshi kurashish usullarini o‘rgatish zarur.

Kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha treninglar o‘tkazish – bugungi kunda raqamli muhitda xakerlik hujumlari va ma’lumotlar o‘g‘irlanishi xavfi yuqori bo‘lganligi sababli, yoshlar o‘zlarining raqamli xavfsizligini ta’minlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, mediasavodxonlik nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning barqarorligi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Yoshlarning to‘g‘ri axborot olishlari, tanqidiy fikrlashlari va manipulyatsiyalarga tushib qolmasliklari uchun bu sohaga doimiy ravishda e’tibor qaratish lozim. Media va axborot madaniyatining yuqori bo‘lishi, dezinformatsiya va feyk yangiliklarga qarshi immunitetning shakllanishi – jamiyatning yanada barqaror va taraqqiy etgan bo‘lishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni. O‘zbekiston

Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son <https://lex.uz/docs/-5013007>

2. ЮНЕСКО. (2021). Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. Paris: UNESCO Publishing.
3. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making. Council of Europe.
4. European Commission. (2020). Tackling Disinformation: A European Approach. Brussels: EU Publications.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetini tashkil etish to‘g‘risida qarori <https://lex.uz/docs/-3748563>

QO‘QONNING MA’NAVIY XAZINASI: AMIRIY KUTUBXONASI

Soipova Orzugul Inomjon qizi

Qo‘qon Davlat Universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti Tarix
yo‘nalishi 202 – guruh talabasi
e – mail: orzugulsoipova72@gmail.com
Tel: +998933848115

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo‘qon shahrining muhim ma’naviy-ma’rifiy maskanlaridan biri hisoblangan Amiriy kutubxonasining tashkil topish tarixi, rivojlanish bosqichlari hamda jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil etilgan. Tadqiqot davomida kutubxonaning Qo‘qon madaniy muhiti shakllanishidagi ahamiyati, kitobxonlik madaniyatini targ‘ib etishdagi faoliyati va yosh avlodni ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishdagi xizmatlari yoritib berilgan. Shuningdek, kutubxonada saqlanayotgan adabiy va ilmiy manbalar, milliy-madaniy merosni asrash borasidagi ishlari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Maqolada Amiriy kutubxonasining nafaqat Qo‘qon shahri, balki mamlakat ma’naviy hayotidagi o‘rni ham ilmiy asosda ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon, Amiriy kutubxonasi, ma’naviy meros, kutubxonachilik, kitobxonlik madaniyati, ma’rifat, ilm-fan, adabiyot, madaniyat, yoshlar tarbiyasi, tarixiy manbalar, ma’naviy qadriyatlar.

Аннотация

В данной статье анализируется история создания, этапы развития и роль Амирийской библиотеки в жизни общества, которая считается одним из важных духовно-образовательных центров города Коканда. В ходе исследования подчеркивается значение библиотеки в формировании